



2020 yil 05 fevral holatiga ko'ra

## Qarindosh/do'stlarnikiga mehmonga borish uchun viza

### MUHIM ESLATMA:

- Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdag'i elchixonasi **Visametric** firmasi bilan rasman hamkorlik qiladi. Shundan kelib chiqib viza bo'limi sug'urta kompaniyalari, sayyohlik firmalari yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchilar bilan hech qanday hamkorlik qilmasligini ma'lum qiladi va ularning xizmatlaridan foydalanmaslikni qatiyan maslahat beradi.
- Elchixona web-sahifasida joylashtirilgan viza olish jarayoni haqidagi ma'lumotni o'qib chiqqaningizdan keyin ham **viza bo'yicha savollaringiz** bo'lsa to'g'ridan to'g'ri Visametricka, yoki agar viza bo'limiga qabulga yozilgan bo'lsangiz elchixonaga murojaat qiling.
- Barcha taqdim etilgan nusxalar **DIN A4** formatida bo'lishi kerak.

Qabulga quyidagi hujjatlarni olib kelishingizni so'raymiz:

- konsullik badali:**
- 12 yoshga to'lgan shaxslar uchun 80 yevro; 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 40 yevro; besh yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul
  - ayrim shaxslar (masalan Yevropa ittifoqiga a'zo davlat fuqarosining turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlari) va ma'lum bir maqsadda safar qilayotgan shaxslar viza badalini to'lashdan ozod etiladi. Bu haqida bataysil ma'lumotni viza bo'limidan olishingiz mumkin.
  - to'lov viza bo'limida amal qilayotgan kursga muvofiq faqat o'zbek valyutasi so'mda amalga oshiriladi

*Shuningdek Visametric web sahifasida keltirilgan qo'shimcha xizmat badali olinadi.*

- Pasport** (asli + shaxsiy ma'lumotlar keltirilgan sahifasining 1 nusxasi):
- kamida ikkita viza uchun bo'sh sahifaga ega bo'lishi
  - so'nggi 10 yil ichida berilgan
  - amal qilish muddati so'ralayotgan viza muddati tugagandan keyin yana kamida uch oyni tashkil etishi shart.
- Shengen vizasi uchun to'liq to'ldirilgan viza so'rovnomaga blanki**
- 2 dona yangi biometrik fotosur'at** (ulardan biri so'rovnomaga yopishtirilgan holda):
- biometrik, oq rangli fonda
  - 3,5cm x 4,5 cm
  - ishlov berilmagan rasm!
- Tibbiy sug'rtva polisi** (1 nusxa):
- barcha Shengen davlatlarida amal qiladigan
  - rejala什ritilgan kunlar va 15 kunlik qo'shimcha muddatni o'z ichiga olgan qoplama miqdori 30.000 yevroдан kam bo'limgan
  - sug'urta polisi Germaniyada (taklif qiluvchi shaxs tomonidan yoki online tarzda) yoki O'zbekistonda tuzilishi mumkin
- taklif qiluvchi shaxsning safar maqsadi**, yashash joyi va safarni moliyalashtirishni tasdiqlovchi (nemis yoki ingliz tilidagi) norasmiy **taklifnomasi**
- taklif qiluvchi shaxsning pasportidan** va kerak bo'lsa Germaniyada yashash uchun berilgan ruxsatnomasidan nusxa
- taaluqli bo'lsa: taklif qiluvchi shaxs bilan **qarindoshlik rishtalarini tasdiqlovchi hujjatlar**: tug'ilganlik haqida guvohnoma va/yoki nikoh tuzilgani haqida guvohnomaning nusxasi

### **Safarni moliyalashtirish:**

- Majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida rasmiy ariza** (asli + 1 nusxasi). Agar ariza nemis yoki inglez tilida bo'lmasa, uning nemis tiliga tarjimasi ilova qilinishi lozim.  
Germaniyada majburiyatlarni o'z zimmasiga olish haqida ariza xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha mas'ul idora tomonidan taqdim etiladi. Shvetsiya va Finlandiya davlatlarida shunga o'xshash jarayon mavjud.

### VA/YOKI

- Safarni o'z hisobidan **moliyalashtirish**:

- bank hisob raqamidan ko'chirma (oxirgi 6 oyda hisob raqamidagi kirim-chiqim operatsiyalari)
- boshqa daromad va mulk shaklida, masalan nafaqa, ijaraidan olingen daromadlar, kapital daromadlar va hokazo

### VA/YOKI

- Uchinchi shaxsning, uning passport nusxasiga yozilgan **moliaviy majburiyat xati**, shuningdek uning hisob raqamidan ko'chrima va/yoki boshqa daromad va mulk tasdiqnomalari
- taaluqli bo'lsa: **mehnat faoliyatini** tasdiqlovchi hujjat
  - **Ishchilar uchun:** ishxonadan berilgan ma'lumotnomalar quydagilarni o'z ichiga olishi lozim:
    - lavozim, ishlayotgan davr
    - oxirgi 12 oyda to'langan maosh
    - safar rejalashtirilgan muddat uchun berilgan ta'til
    - ish beruvchining manzili, telefon raqami (statsionar), web sahifasi / e-mail STIR/INN raqami
  - **Mustaqil ravshda ish yurituvchilar uchun:**
    - firmaning hokimiyatda ro'yhatdan o'tgani haqida guvohnoma, shuningdek (STIR/INN) raqami va firma egasi qayd etilgan hujjat (asli + 1 nusxasi)
    - so'nggi soliq bayonetnomasi
- taaluqli bo'lsa: so'nggi uch yilda berilgan **Shengen vizasi**, shuningdek pasportning kirish chiqish shtamlari qo'yilgan sahifalaridan nusxa

### **Oxirgi 3 yilda Shengen vizasidan foydalanmagan arizachilar uchun:**

mavjud bo'lsa:

- Nikoh haqida va voyaga yetmagan farzandlarning tug'ilganlik haqida guvohnomalaridan nusxalar, shuningdek tur mush o'rtoqining amal qilish muddati tugamagan pasporti (asli + shaxsiy ma'lumotlar keltirilgan sahifasidan nusxa)
- Ko'chmas mulkka egalik haqida hujjat
- Boshqa mulk egaligi haqida hujjatlar

### **Balog'at yoshiga yetmagan arizachilar uchun:**

- Bolaning tug'ilganlik haqida guvohnomasi nusxasi
- Vasiylik huquqiga ega shaxslar pasportining shaxsiy ma'lumotlar keltirilgan sahifalaridan nusxa  
Vasiylik huquqiga 2 shaxs ega bo'lsa va ularing ikkisi ham ariza topshirish vaqtida hamrohlik qilsa:
- Vasiylik huquqiga ega shaxslarning ariza blankidagi shaxsiy imzolari  
agar vasiylik huquqiga ega bo'lgan (2) shaxsning faqat birigina ariza topshirish vaqtida hamrohlik qilsa:
- vasiylik huquqiga ega ikkinchi shaxsning bolaga hujjat topshirish uchun notarius tomonidan tasdiqlangan ruxsatnomasi
- Vasiylik huquqiga bir kishi ega bo'lsa:
- Bola tarbiyasi uchun faqat bir kishi mas'ulligini tasdiqlovchi hujjat (masalan sud qarori yoki FXDYO ma'lumotnomasi)
- Vasiylik huquqiga ega shaxsning ariza blankidagi shaxsiy imzosi

Viza bo'limi vaziyatga qarab viza so'rovnomangiz borasida qaror qabul qilishi uchun qo'shimcha hujjatlar talab qilishi mumkin. Bu haqida ma'lumot sizga hujjat topshirayotganingizda yoki topshirganingizdan so'ng beriladi.